

O'ZBEK TILIDAGI "BOSH" ASOSLI SO'ZLARNING LINGVOSTATISTIK TAHLILI

Hoshimova Farangis

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17355830>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi "bosh" asosli so'zlarning lingvostatistik tahlili Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari misolida keltirilib, ularning tilimizda ishlatilishi haqida fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, disfemizm, ko'chma ma'no, polisema, omonimiya, fonologiya, tub, yasama, "Devonu lug'atit turk" asari, okkozional ma'no, "Qutadg'u bilig leksikasi" monografiyasi, bash.

Til birliklarining ko'p ma'noliligi aloqa jarayonida sanoqli til vositalari yordamida son-sanoqsiz mazmunlarni (ma'nolarni) ifodalashda insonlar uchun katta imkoniyat yaratadi. Ko'p ma'nolilik tilga xos ijobiy hodisa bo'lib, u aloqa jarayonida insonlarga xalaqit bermaydi, balki yordam beradi.

Ko'p ma'noli so'zlar o'zbek tilida tilning quyidagi hodisasi natijasida vujudga keladi:

1. Ko'chma ma'no hosil bo'lishi natijasida;
2. Evfemizm va disfemizm natijasida;
3. Affiksatsiya natijasida.

So'zlarning ko'chma ma'nolari biror predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarning nomini yana shunday boshqa predmet, voqelik, belgi, harakat va holat kabilarga ko'chirish orqali hosil bo'ladi. Demak, biror nom egasi nomga ega bo'lmaganni (yoki boshqacha nomlash uchun) o'ziga nomdosh qilib oladi, natijada nomdosh bo'luvchi hisobiga ko'chma ma'no hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, ko'chma ma'no hosil bo'lishida ikki ob'ektning o'zaro munosabati asosiy rol o'ynaydi. Mazkur ikki obyektning biri —nomdoshlovchi, ikkinchisi — nomdoshlanuvchidir. Nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat esa turlicha xarakterga ega. Bu munosabatlarga qarab ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalarni turlarga ajratish masalasi esa tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinib kelgan.

Kuzatishlarimiz natijasida bosh asosli so'zlar "Devonu lug'atit turk" asarida 15 o'rinda kelganligining guvohi bo'ldik. Ulardan 6tasi tub so'z, boshqalari esa yasama so'zlardir.

Semantikaga oid taqiqotlarda so'z ma'nosining tarixiy taraqqiyoti o'zgarimas holda tuzilgan maydonning qayta qismlarga bo'linishi sifatida izohlanadi. So'zning semantik maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo'lib, davrlar osha o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Ma'lum semema tarkibida nechta asosiy sema mavjud bo'lsa, ushbu semema har bir semasi asosida turlicha ma'noviy bog'lanishlar hosil qila oladi. So'z ma'lum sememasiga ko'ra muayyan semantik maydonlarga birlashadi. Semantik maydonda so'zlar bir-biri bilan tutashmasligi qayd etiladi. So'z ma'nolarining bir-biriga tutashmasligi nisbiy tushuncha bo'lib, etimologik tahlillar turli maydonga mansub leksemalarning semantik jihatdan bog'lanishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur aloqadorliklar semantik to'rlarni yuzaga keltiradi. Bu esa semantik maydon tushunchasining semantik to'rlar bilan to'ldirilishini taqozo qiladi.

So'zning ma'nosini nutqdan ajratib alohida tatqiq qilib bo'lmaydi. Chunki leksik qurshov so'z ma'nolarini ochib berishga ko'maklashadi. Har bir istiloh o'ziga xos leksik qurshovda ega bo'lib, u bilan semantik va grammatik jihatdan bog'lanadi. Shu bois, leksik qurshov tabiatini o'rganmasdan turib, so'z ma'nolarini aniqlash mushkul. Ko'p ma'noli leksemalar semalarini bir biridan farqlash uchun ularning leksik qurshovi ham qiyoslanadi. Natijada sememalarning

mustaqillik darajasi belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, **bash** so'zi qadimgi turkiy til yodnomalari va qoraxoniylar davri obidalarida "tananing bo'yindan yuqori, oldingi qismi", "javobgarlik, mas'uliyat" (ko'chma), "bosh tomon", "idishning bo'g'zi", "boshq", "uch, tepa qism", "daryoning boshi, yuqorisi", "rahbar", "boshi boshlanishi" kabi semalarda qo'llanilgan. "Devon-u lug'otit turk" asarida esa bash so'zi "yara" ma'nosida ham qo'llanilgan. "Qissasi Rabg'uziy leksikasi" asarida ular quyidagicha ma'nolarda kelishi keltirib o'tilgan¹:

1) "tananing bo'yindan yuqori, oldingi qismi, kalla": Tört yüz qari bash üzä sekrib azaqlarin tepsälär tizläriñä tegi kömülür erdi;

2) "boshliq, rahbar": Ishārat ul tururkim Rasul alayhis-salām biziñ nafsimizdin bolsa, ul bizgä bash bolur, biz ayaq bolurbiz. Bu o'rinda mazkur so'z **bashliq** leksemasi bilan ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan: Abu Jahl bashliq quraysh kâfirlari Rasulg'a kâfirlik qila boshladilar;

3) "lavozim, mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi": Nechä bash hakim äqil eränlär kirib üñür ag'zi tushunda arquri yig'achlar ornattilar;

4) "eng oldingi, birinchi": Anas ibn Mālik aytur: Rasul alayhis-salām aydi: bash barmaqin chichala barmaq ichindä qoyub münchä erdi;

5) "tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi": Biri-biriñä qatib ulush qilg'il, tört tag' bashinda qozg'il;

6) "yo'lning boshlanish joyi": Yol bashinda bir chashma suv kördi;

7) "ba'zi o'simliklarning kalla yoki chochoq shaklidagi hosili, mevasi": Malik alarg'a bir bash üzüm berdi azuq üçhün;

8) "qaytadan, boshqatdan": Ya'ni bashdin yigitmü bolurmiz, yāqut mundag'uq qari erkän og'ul tug'armu?

9) "boshi, boshlanishi": Ya'ni kafālatniñ bashi malāmat turur, ortasi ökünch turur, āxiri tavnān turur;

10) "boshida, dastlab": Sen Fir'avn taba izgändä bashda= oq tedin;

Ushbu ot aslida qadimgi turkiy tilda ba:sh tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik, a: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan. O'zbek tilida a unlisi b unlisiga almashgan: ba:sh>bash>bâsh.

Shuningdek, Mushtariy Xolmuradovanning "Qutadg'u bilig" leksikasi monografiyasida doston matnida keltirilgan **qapuy bašlar** ikki turkiy so'zning birikuvidan hosil bo'lgan, "saroydarvozalarini qo'riqllovchi kishining boshlig'i" ma'nosini bildirgan. Qapuy bašlar er kâd bay'rsaq keräk, tanı žanı birlä tapuysaq keräk - Darbozabonlar boshi kishi juda mehrli (bo'lishi) kerak, tani va joni bilan xizmatga berilgan (bo'lishi) kerak (QBN, 2490; 95b2). Mahmud Qoshg'ariy devonida shu lavozim bilan bog'liq ordu baš so'zi qo'llangan (DLT, I, 145). G. Dyorfer bu so'zni "saroy boshqaruvchisi" tarzida izohlagan².

Baş tana qismini bildiruvchi polisemantik so'z, denotativ ma'noda jonzotlar tanasining yuqori ismini ifoda etadi. Quyidagi baytda narsa1buyumlar qismiga ko'chgan: *Elik sunsa erdäm bilä er tegib, uluy tay bašin yerkä ilgürür egib* – Kishi tushunib, san'at-hunar bilan qo'l uzatsa, ulug' tog' boshini egib yerga engashtiradi (QBN, 2608; 99b4).

Baş "asosiy, muhim, boshliq, boshchi" ma'nosini ham ifodalagan: *Kür arslan bolu bersä itqa baši, bu it barča arslan bolur öz tüši*– Ko'rgin, agar arslon it (lar)ga bosh bo'lsa, bu itlar barchasi uning tengida arslon bo'ladi (QBN, 2013; 79a10). Bu o'rinda *baş* leksemasi

¹ Abdushukurov B. Qissasi Rabg'uziy leksikasi. -T.: Akademiya, 2008. -B. 122-125.

² Xolmuradova M. Qutadg'u bilig leksikasi. -T.: Nodirabegim, 2020 -B. 87-90

vazifadoshlik asosida ko'chma ma'no ifodalagan. *Bosh* butun tana a'zolarini boshqaradi. *Boshliq* ham boshqarish vazifasini bajaradi. Semantik ko'chishga "boshqarmoq" semasi asos bo'lgan. R.Arziev *baš* so'zining 8ta ma'nosini keltirgan³: 1) bosh, asosiy, to'g'ri ma'nosi: tana qismi; 2) boshliq, sardor; 3) ma'lum bir hodisaning boshlanishi; 4) nimaningdir tugashi, oxiri; 5) maqsadga muvofiq bajarilgan ish; 6) hayot, taqdir, 7) xalq, 8) ilg'or, asosiy.¹ A.Kasieva "Qutadg'u bilig" matnida *bosh* ~ 87 ~ so'zining 130 dan ortiq metaforik ma'nolari aks etganligini qayd etadi⁴.

Asarda qo'llangan **aš bašçisi** termini "saroy oshpazlarining boshlig'i, bosh oshpaz" ma'nosini bildirgan: Ayaq tergi bašlar bu aš bašçisi, nekü-teg keräk ayyıl aš iščisi - Lagan-dasturxon mutasaddisi, osh (noz-ne'matlar) boshlig'i, osh (noz-ne'matlar) xizmatchisi qanday bo'lishi kerak, aytgin (QBN, 2784; 105b4).

Yana shuningdek, harbiy terminlarda keltirilgan "lashkarboshi" ma'nosini anglatuvchi **sü bašlar** birikmasi doston matnida faol qo'llangan. Birikma tarkibidagi sü "qo'shin-lashkar" istilohi O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida faol qo'llangan (DTS, 516). Sü bašlar turkiy so'z bo'lib, asar matnida shu leksemaga yaqin tushunchalar bilan birga kelgan: Vazir-ul ekinçi sü bašlar alam, birisi qıllıç tuttı biri qalam - (Biri) vazir, ikkinchisi - yalovbardor lashkarboshi, biri (qo'lida) qilich tuttı biri qalam (QBN, 2382; 91b12). G. Dyorfer doston matnida qayd etilgan sü baš lavozimining hozirgi "marshal"ga teng kelishini aytib o'tadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, "bosh" asosli so'zlar qadimdan mavjud va ular ning turli xil ma'noga ega shakllarini "Devoni lug'atit turk" matni bevosita uchratamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdushukurov B. Qissasi Rabg'uziy leksikasi. -T.: Akademiya, 2008. -B. 122-125.
2. Hakimov M. Semasiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008. B.5
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022. – B.87.
4. Mirtojyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. –T: Mumtoz so'z, 2010. – B. 288.
5. Rahmatullayev Sh. Semema- mustaqil til birligi // O'TA, 1984.№5. B. 18; Rahmatullayev Sh, Yunusof R. Sememalarning semalar sostavi va semantic bog'lanish haqida // O'TA, 1974. №1; Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. – B. 173-147.

³ Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы "Кутадгу билик" Юсуфа

Хас Хаджиба. Дисс. канд. филол. наук.–Алма–Ата, 1991.–Б.10

⁴ Касиева А. Антропоморфная метафора в поэме "Кутадгу билик" и особенности

перевода ее на английский язык. *Sosyal Bilimlar Dergisi*.Sayı:15, 2006.–С.142.